

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	117
<b>Sh.Q.Yuldasheva</b>	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
<b>Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova</b>	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalaringning o'zgarishi .....	127
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Cynara scolymus L. O'simligidan ajratib olingen endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faoliylklari .....	133
<b>S.Israiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva</b>	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili .....	138
<b>M.K.Julihev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov</b>	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziysi bo'yicha 1993-2022-yillar oraliq'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili .....	143
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant Cynara scolymus L.....	149
<b>S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev</b>	
Farg'ona vodiysi Cladocera ( <i>Crustacea: Branchiopoda</i> ) lari ro'yxati.....	157
<b>Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov</b>	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
<b>M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova</b>	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
<b>M.A.Davidov</b>	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (Regel) korovin antekologik xususiyatlari .....	181
<b>X.N.Raximov, G.T.Djalilova</b>	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalariiga ta'siri .....	186
<b>M.R.Qoriyev</b>	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar .....	191
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	196
<b>R.A.Ikromov</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli .....	200
<b>S.Nishonova</b>	
Maqollar paremiologik birlik sifatida .....	205
<b>Sh.A.Tadjibaeva</b>	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	208
<b>S.S.Jabborova</b>	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalananish istiqbollari.....	213
<b>E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov</b>	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
<b>K.M.Nilufar</b>	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
<b>T.Quyliyev</b>	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli .....	227
<b>B.M.Qandov</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli .....	233
<b>Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova</b>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvismning ta'siri .....	238
<b>F.F.Muydinov</b>	
Tibbiy ta'linda media ta'limga asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
<b>Z.S.Paziljanova</b>	



УО'К: 316.647:2(574.1)

**YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA MA'NAVIY SALOHIYATDAN  
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА В ПОСТРОЕНИИ  
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**PROSPECTS FOR USING SPIRITUAL POTENTIAL IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN**

Jabborova Saodat Sattorovna

Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada muallif Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni, mamlakatni jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'- e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama farovon davlatga aylantirish borasidagi fikrlarni bayon etadi, shuningdek, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos ekanligi asoslab beriladi.*

**Аннотация**

*В статье автор описывает роль реформ, реализованных в Новом Узбекистане, в общественном развитии, освещаются мысли о превращении страны во всесторонне благополучную и процветающую страну с сильным потенциалом и достойной репутацией на мировой арене, а также утверждается, что новая Стратегия развития Узбекистана представляет собой целостную моральную основу, объединяющую наш народ ради общих целей.*

**Abstract**

*In the article, the author describes the role of the reforms implemented in New Uzbekistan in social development, highlights thoughts on transforming the country into a comprehensively prosperous country with strong potential and a worthy reputation on the world stage, and also argues that the new Development Strategy of Uzbekistan represents a holistic moral a basis that unites our people for common goals.*

**Kalit so'zlar:** ma'naviy salohiyat, Yangi O'zbekiston, jamiyat salohiyati, iqtisodiy salohiyat, ma'naviy-ruhiy muhit, ijtimoiy salohiyat, ijodiy tafakkur, ijtimoiy taraqqiyot, milliy mafkura, madaniy meros.

**Ключевые слова:** духовный потенциал, Новый Узбекистан, общественный потенциал, экономический потенциал, духовно-нравственная среда, социальный потенциал, творческое мышление, социальный прогресс, национальная идеология, культурное наследие.

**Key words:** spiritual potential, New Uzbekistan, community potential, economic potential, spiritual environment, social potential, creative thinking, social progress, national ideology, cultural heritage.

**KIRISH**

O'zbekistonda ma'naviy salohiyatni ijtimoiy taraqqiyot omiliga aylantirish uchun uni yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining asosiy vazifalarini, boshqarish mexanizmlarini aniqlab olishning o'zi kifoya emas. Ayni paytda jamiyat ma'naviy salohiyatidan oqilona foydalanish istiqbollarini ham belgilab olish kerak. Ayniqsa Yangi O'zbekistonni barpo etishni maqsad qilgan, ma'rifiy jamiyat qurishga, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilayotgan davrda mavjud ma'naviy salohiyatdan foydalanishning zaruriyati va imkoniyatlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ma'naviy salohiyatni yuksaltirish sohasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish soha vakillari zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada yurtimizda rivojlanish strategiyalari asosida qator ishlarni amalga oshirildi. Istiqboldagi dolzarb vazifalarni aniqlashdan oldin amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijadorligini analiz qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki mamlakatimiz ahli, ayniqsa yoshlarning dunyovi, ilmiy, axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanga sadoqat, mafkuraviy, g'oyaviy va diniy aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlariga qarshi immunitetni shakllantirish, o'lkamizda ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy muhitni yanada sog'lomlashtirish, huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash maqsadida muhim chor-

tadbirlar olib borilmoqda. Jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy g'oya tamoyillarini hayotga joriy etish, yosh avlod qalbida kelajak uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Lekin, dunyoning globallashib borishi, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarning ko'payib borishi bilan bog'liq murakkab va tahlilik vaziyatda bu faoliyatni zamon talablari asosida takomillashtirish, yoshlar tarbiysi, jinoyatçilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlar bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbekistonda 2017-2021 -illarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi amalga oshirildi. Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini mazmunini yaxshilash, ularning ko'lami va miqyosini kengaytirish va ularning samarasini oshirish maqsadida 2017-yil 28-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" qarori qabul qilindi [1]. Unda:

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, dasturlarning mazmun va mohiyatini aholiga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish;

- geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama yoritish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish;

- jamiyatimizning barqaror rivojanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tадидлар – el-yurt taqdирiga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'ttasida keng targ'ib etish, buniyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish;

- targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

- ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish;

- yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, Internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an'analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni o'ttasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish belgilab qo'yildi.

Ammo amalga oshirilgan ishlarni yanada jonlantirish, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada emasligi bu sohada muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'llim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etardi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdag'i PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'llim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilinganligi muhim ahamiyat kasb etdi [2]. Unda:

- yuksak ma'naviyatlari, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

- yoshlarni yot g'oyalari ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat berildi.

Jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar va ma'naviy tahdidlar kuchayishi yoshlari o'ttasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, yot g'oyalari ta'siriga berilish kabi holatlarning uchrab turishi mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning ma'anviy salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat

## ILMIY AXBOROT

va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tiborni talab qilardi. Shu bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 mayda PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unda:

- aholi o'tasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;
- "Jaholatga qarshi ma'rifikat" g'oyasi asosida jamiyatda uzuksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarni tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;
- tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g'oyalariqa xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarni olib borish;
- aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bунyodkorlik g'oyalarni kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlarning yetarli samara bermagani, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda yangilanishlar ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizimni talab qilib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, yoshlar qalbida islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish talabini qo'ydi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Unda:

- ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan g'oya asosida jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bунyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyigini ta'minlash;
- ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;
- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;
- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;
- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish vazifalari belgilab berildi.

Yuqorida qayd qilingan Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan amaliy ishlar ma'naviy salohiyatni yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi, albatta.

*Mamlakatimizda ma'naviy salohiyatdan oqilona foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bilan hamohangdir.* Boshqacha aytganda, bugungi islohotlar qaysi maqsadlarni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan bo'lsa, davlat tomonidan yuksaltirish choralar ko'rilgan va oqilona boshqarib borilayotgan ma'naviy salohiyat yaqin kelajakda aynan o'sha maqsadlarga yetish imkonini beradi. Ma'lumki, O'zbekistondagi ijtimoiy yangilanishlarning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- "har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;
- barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish"[3].

Binobarin, jamiyat ma'naviy salohiyatidan ana shu yo'nalishlardagi maqsadlarni hal qilishda foydalanish mumkin.

*Bininchidan*, ma'naviy salohiyatdan "har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish"da foydalanish mumkin. Bu yo'nalishdagi tub islohotlar davomida ta'lif

tizimi islohotlar, aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishlaridagi islohotlar va ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar bilan bog'liq ahamiyatli maqsadlarga erishish ko'zda tutilmoqda. Mazkur maqsadlarni ro'yobga chiqarishda ham jamiyatning ma'naviy salohiyatiga tayanish zarur bo'ladi.

O'zbekistonda har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishda ma'naviy salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollarini inobatga olgan holda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

✓ edu.uz saytida "Ta'lrim mazmuni va sifatini oshirishga doir takliflar" nomli bo'lim tashkil etish va uning orqali mutaxassislar va soha xodimlarining ta'lrim mazmuni va sifatini takomillashtirishga doir mulohazalarini jamlash;

✓ "O'zbekistonda ilm-fan rivoji" mavzusida muntazam o'tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyanı yo'nga qo'yish va uning yordamida olimlarning ilm-fanning bugungi ahvoli va uni rivojlantirish imkoniyatlari doir mulohazalarini o'rganib borish;

✓ sohaning malakali mutaxassislari taklif va tavsiyalarini tibbiyot sohasidagi islohotlarda, xususan tibbiy xizmatni takomillashtirishda, hududlardagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni va jamoat salomatligini ta'minlashda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish;

✓ jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatish tajribasiga ega bo'lgan sport ustalarining tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;

✓ respublikadagi yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy mexanizmlar qamrovini kengaytirish, ushbu mekanizmning mamlakatdagi barcha yoshlarni qamrab olishini ta'minlash;

✓ ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ta'minoti sohalaridagi islohotlarni ijtimoiy adolat tamoyillari, aholi ehtiyoj va manfaatlari bilan yanada uyg'unlashtirish.

## NATIJALAR

Ushbu takliflar O'zbekistondaadolatlilijtimoiyi siyosatni ta'minlashda va inson kapitalini rivojlantirishda jamiyat ma'naviy salohiyatidan kengroq foydalanishda qo'l keladi.

Ma'naviy salohiyatdan ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar davomida jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bунyodkorlikni umummilliylar harakatga aylantirish, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqr o'rganish va keng targ'ib etish, jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish, milliy kino san'atini rivojlantirish maqsad qilingan. Mazkur maqsadlarni ro'yobga chiqarishda jamiyat ma'naviy salohiyatiga tayanilishi ularga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

O'zbekistonda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda ma'naviy salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollarini inobatga olgan holda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

✓ "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda ma'naviy salohiyatdan foydalanish Konsepsiyasini" ishlab chiqish, uni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini belgilab berish;

✓ ma'naviy-ruhiy muhitning sog'lomligini ta'minlab turgan omillardan, ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'un shaxslararo munosbatlardan mamlakatda bунyodkorlikni umummilliylar harakatga aylantirishda foydalanish choralarini aniqlash;

✓ kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni rasimiyatchilikdan xalos qilish, axborot kutubxona makazlariga tashrif buyurishni ijtimoiy normaga aylantirishga xizmat qiladigan choratadbirlar majmuuni ishlab chiqish va amalga oshirish;

✓ davlat buyurtmasi asosida "Buyuk ilmiy meros" rukni ostida mutaxassislarning ajdodlar merosiga bag'ishlangan asarlarini nashr qilishni faollashtirish;

✓ mutafakkir va mutaxassislarning jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitining strategik ahamiyati, uni mustahkamlash yo'llariga bag'ishlangan asarlarini fondini tashkil qilish;

✓ viloyat markazlarida adabiyot va san'at namoyondalarining noyob durdonalari ko'rgazmalarini tashkil etish orqali yosh ijodkorlar uchun ibrat maktabini shakllantirish;

✓ joylarda davlat rahbarining O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilish bilan bog'liq tashabbuslarini tizimli ravishda ro'yobga chiqarish choralarini ko'rish.

Ushbu takliflar O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotini jadallashtirishda jamiyat ma'naviy salohiyatidan kengroq foydalanishda qo'l keladi.

## ILMIY AXBOROT

*Ikkinchidan*, ma'naviy salohiyatdan "barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash"da foydalanish mumkin. Bu yo'nalishdagi tub islohotlar davomida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'ttachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish, O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish kabi ahamiyatli maqsadlarga erishish ko'zda tutilmoqda. Jamiyat ma'naviy salohiyati ushbu iqtisodiy maqsadlarga erishishda qudratli manba vazifasini o'taydi.

*Uchinchidan*, ma'naviy salohiyatdan "suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish" foydalanish mumkin. Bu yo'nalishdagi tub islohotlar davomida suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlar hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar kabi maqsadlarga erishish nazarda tutilgan. Jamiyat ma'naviy salohiyati mazkur maqsadlarni voqelikka aylantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

*To'rtinchidan*, ma'naviy salohiyatdan "qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" foydalanish mumkin. Bu yo'nalishdagi tub islohotlar davomida xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar hamda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimida islohotlar olib borish kabi ahamiyatli maqsadlarga erishish ko'zda tutilmoqda. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarishda jamiyatning ma'naviy salohiyati muhim poydevor vazifasini o'taydi.

## MUHOKAMA

Masalan, jamiyatning ma'naviy salohiyati oshgani sayin hududiy ijro organlari ustidan nazorat kuchaya boradi, bu esa ularning mavjud muammolarni hal qilishdagi sa'y-harakatlarini faollashtiradi. Yangi tatbiq etilayotgan davlat boshqaruvi tizimining professionallik, adolatlilik tamoyillariga bo'ysundirilishi ham ma'naviy salohiyatga borib taqaladi. Ma'naviy salohiyat bo'limasa, siyosiy institutlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiropi passivligicha qolaveradi. Uni yuksaltmasdan turib, qonun ijodkorligi, elektron davlat xizmatlaridan foydalanish ulushini yaxshilab bo'lmaydi. Yuksak ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan davlat xizmatchisi va fuqarogina o'zaro samarali muloqotga kirishishlari mumkin. Ma'naviy salohiyat oqilona jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga qodir bo'lgan fuqarolik jamiyatni institutlarini vujudga keltiradi. Bularning barchasi pirovardida xalqparvar davlat barpo etish imkonini yaratadi.

Qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning zarur shartiga aylantirishda mulk dahlsizligini, qonun ustuvorligini ta'minlash uchun avvalo jamiyat a'zolarining madaniy saviyasini yuksaltirish zarur bo'ladi, chunki ana shunday fuqarolargina bu borada taqdim qilingan huquqlardan muvaffaqiyatli foydalana oladilar. Fuqarolarni qonunga hurmat ruhida kamol toptirish ham madaniy saviyani shakllantirishga qaratilgan umumiyligi sa'y-harakatlarning tarkibiy qismi sifatida amalga oshirilishi mumkin. Sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitning saqlanishi jamoat xavfsizligini ta'minlashda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi, binobarin, ijtimoiy xavfsizlik muhit sog'lomligini asrab-avaylashdan boshlanadi. Jamiyat ma'naviy salohiyati prokuratura va sudning yangi qiyofasini shakllantirish, advokatura institutini takomil toptirishda ham qo'l keladi – muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy, ilmiy bilimlarga tayanmasdan tutib, mazkur maqsadlarga erishish amri mahol. Ko'rinish turibdiki, jamiyat ma'naviy salohiyatini tarkib toptiruvchi mezonlardan naqadar oqilona foydalanilsa, islohotlarning ushbu yo'nalishidagi maqsadlarga erishish shu qadar muvaffaqiyat qozonaveradi.

*Beshinchidan*, ma'naviy salohiyatdan "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish"da foydalanish mumkin. Bu yo'nalishdagi tub islohotlar davomida ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo'yicha islohotlar hamda mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlartakomillashtirish maqsadlari qo'yilgan. Jamiyat ma'naviy salohiyati mazkur maqsadlarni voqelikka aylantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Masalan, o'zbek davlatchilik tajribasi mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga, uning xalqaro maydonidagi faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mutafakkirlarning adolatlilik hukmdor, davlat boshqaruvi uslublariga doir merosi ham bu borada muhim manba vazifasini o'taydi. Mamlakatda asrlar mobaynida shakllangan harbiy san'atdan mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda foydalanish mumkin. Siyosatshunos olimlarning mustaqillik yillarda taqdim qilgan asarlari tashqi siyosatga oid normativ-huquqiy hujjatlarni taomillashtirishda, bu boradagi faoliyatni milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirishda qo'l keladi.

## NATIJALAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyat ma'naviy salohiyatini ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omilga aylantirish uchun undan oqilona foydalanish istiqbollarini belgilab olish kerak. Bu istiqbollar

amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang bo'lmoq'i lozim. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, bugungi kunda jamiyat ma'naviy salohiyatidan Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasining asosiy g'oyalari barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'ttachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rinn olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'llim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlashda kengroq foydalanish kerak bo'ladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.07.2017 йилдаги ПҚ-3160-сон “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантириши янги босқичга кўтариш тўғрисида” қарори // <https://lex.uz/docs/4071203>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сон “Ёшларни маънавий ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори // <https://lex.uz/docs/3864155>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O'ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to'g'risida” Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. Jabborova S.S. Analysis of the Idea of Freedom in Eastern and Western Philosophical Views. // International Journal on Integrated Education. - Volume 5, Issue 12 | Dec -2022. -PP.307-309. (Global Impact Factor 7.242 (2022); CrossRef; Index Copernicus)
5. Jabborova S.S. The Role of Spirituality in the Education of a Perfect Generation. // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. - Volume: 04. Issue: 05. May, 2023. – PP.296-299. (Journal indexed by Academic Resource Index (ResearchBib))
6. Jabborova S.S. Jamiyat ma'naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. // Falsafa va hayot. -Toshkent, 2023, - №SI-2. – B.105-112. (09.00.00; №25)
7. Jabborova S.S. Ma'naviy salohiyat - ijtimoiy taraqqiyot manbayi. // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. - №8. – B.148-150. (09.00.00; №17)
8. Jabborova S.S. Jamiyatda ma'naviy salohiyatni rivojlantirish – yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. // Tafakkur ziyozi. – Jizzax, 2023. -№2. – B.186-190. (09.00.00; №22)
9. Jabborova S.S. Piritual competence - a source of social development. // 2nd International Ege Congress on Social Sciences & Humanities. - Ege University, Izmir, Turkiye. 2023. – PP.557-560.
10. Jabborova S.S. The Role of Education in Improving Society's Spiritual Capacity. // Current Approaches and New Research in Modern Sciences. International scientific-online conference. Published October 21, 2023. – Poland, 2023. – PP.73-76.
11. Jabborova S.S. Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni. // “Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy -axloqiy asoslarini optimallashtirish: muammo, yechim, va vazifalar” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2023. – B.459-461.